



9-fevral – Alisher Navoiy tavallud topgan kun

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 5 (67274)
2020-yil 3-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

NAF' TEGURMAKKI, SHIOR AYLADING, O'ZINGGA UL NAF'NI YOR AYLADING.

Alisher NAVOIY



«Hayrat ul-abror»



«Farhod va Shirin»



Tasviriy san'atga ixlosi
baland tengdoshingiz
Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumanidagi
51-umumta'lim
maktabining 11-sinf
o'quvchisi Hafiz
HAKIMOV Alisher
Navoiy bobomizning
dostonlaridan
ilhomlanib,
taassurotlarini
qog'ozga tushirdi.

ADABIYOT BAYRAMI

2-bet



MAVLONO LUTFIY VA O'SPIRIN ALISHER

So'z san'atida dunyoda yagona bo'lgan hamda ungacha hech kim turkiy tilda undan ko'proq va undan yaxshiroq she'r yozmagan Mavlono Lutfiy ul hazratning endigina unib-o'sib borayotgan va yaxshi-yomonni ajratib boshlayotgan (o'spirinlik) chog'larida kunlardan bir kun uning huzuriga borib, undan:

– Biror g'azal o'qib berish orqali o'z tafakkuringiz mahsullarining yangi

namunalaridan meni bahramand eting, – deb iltimos qildi.

Ul hazrat matla'i quyidagicha bo'lgan bir g'azalni o'qib berdi. She'r:

**Orazin yopqoch ko'zumdin so-chilur har lahzayosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz,
nihon bo'lg'och quyosh.**

Hazrat Mavlaviy bu ajoyib g'azalni eshitib, hayrat dengiziga cho'kib ketdi

va uning tiliga shunday so'zlar keldi:

– Xudoga qasam ichib aytaman-ki, agar iloji bo'lganida edi, o'zining o'n-o'n ikki ming baytdan iborat bo'lgan turkiy va forsiy g'azallarimni birgina ushbu g'azalga almashtirgan va uni ushbu ayirboshlash natijasini katta muvaffaqiyat deb hisoblagan bo'lardim.

«Makorim ul – axloq»dan.



«HAYRAT UL-ABROR» TA'LIMIY DOSTON

Alisher Navoiy buyuk shoir, mutafakkir bo'libgina qolmay, ulkan epik shoir – dostonnavis hamdir. Navoiy epik asarlari bilan mislsiz muvaffaqiyatlarga erishdi. Navoiyning

axloqiy-ta'limiy qarashlarini bayon etish, kishilarga ta'lim va o'git berish maqsadini o'z oldiga qo'yadi.

Dostonning oltinchi maqolati odob masalalariga bag'ishlanadi.

Navoiy bu maqolatida kishilar bilan munosabat va muomala mezonini, bola tarbiyasi haqida fikr-mulohazalarini bayon etadi.

Rostlik va to'g'rilik mavzusiga bag'ishlangan o'ninchi maqolatida Navoiy rostgo'ylik va to'g'rilikning foydasi, yolg'on so'zlash hamda egrilikning zararini bayon etadi.

Elga manfaat yetkazish

masalalariga bag'ishlangan o'n uchinchi maqolatda Navoiy kishi o'zgalarga yaxshilik qilgan bo'lsa, u o'zgalargagina emas, balki ayni chog'da, o'ziga ham foyda keltirgan bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi:

**Naf'ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf o'zingga ko'prakdurur.**

Kishi o'zgalarga yomonlik qilsa, bu bilan u birinchi navbatda o'ziga yomonlik qilgan bo'ladi:

**Ulki zarar shevasini javr etar,
Elga demakim o'ziga javr etar.**

Navoiy maqolatlaridagi masalalarni to'liq yoritish uchun maqolatlarga hikoyalar ilova qiladi.

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostoni vositasida insonlarni yuksak axloqli, ma'naviy boy va komil etib tarbiyalashni o'zining bosh maqsadi deb belgilagan.

Navoiyning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan «Hayrat ul-abror» dostoni butun dunyo ahli xalqlariga manzur bo'lgan she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning ijodi insoniyatga doimiy xizmat qiladi.

**Barno MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning
Shayxontohur tumanidagi
276-umumta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi**



«Xamsa»si XV asrdayoq atoqli so'z san'atkorlarining yuksak bahosiga sazovor bo'lgan.

«Hayrat ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi») janr xususiyati jihatidan «Xamsa»ning boshqa dostonlaridan tubdan farq qiladi. Navoiy bu asarlarida falsafiy,

ADABIYOT BAYRAMI

Buyuk mutafakkir, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning boy adabiy merosi asrlar osha insonlar qalbiga ziyo taratib, ong-u shuuriga ezgulik, insonparvarlik, saxovat, mehr-muruvvat atalmish fazilatlar urug'ini qadab kelmoqda.

Yurtimizda ulug' bobokalonimizga ehtirom ko'rsatish, asarlarini o'rganish, dunyoda keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratiladi. Zero, shoir bobomiz iste'dodining betakrorligi bilan ham, xalqparvar davlat arbobi sifatida jamiyatda tutgan yuksak mavqei yuzasidan ham, ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot ahliga ko'rsatgan homiyiligi jihatidan ham dunyoda o'xshashi yo'q daho, siymo sanaladi.

Buyuk mutafakkir bobomizning eng oliy maqsadi, yagona maslagi insonlar ko'nglini obod etish edi:

**Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron o'lsa obod aylagay.**

Mir Alisher Navoiyning ijodiga butun dunyo tan beradi. Uni qanchalar yuksaklarga ko'tarsak-da, kamlik qilaveradi, ta'rifiha so'z topish mushkul. Ko'plab ulug' ajdodlarimiz u zot haqida bebaho fikrlarni bayon qilgan. Jumladan, Davlatshoh Samarqandiy «Bu ulug' Amir din-u davlat homiysi, shariat hamda millatning pushti panohidir», deya ta'rif bergan.



Alisher Navoiyning tavallud ayyomi nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo adabiyot, she'riyat ixlosmandlari uchun chin ma'noda adabiyot bayrami desak, mubolag'a bo'lmaydi. Boisi, Alisher Navoiy o'zining ijodi, ezgu amallari, insonparvarlik g'oyalari bilan butun dunyoga ezgulik ulashgan. Xalqimiz she'rxonlikni yaxshi ko'radi, adabiyotni sevadi. Alisher Navoiydek buyuk shoirlarini mangu ardoqlaydi.

**Dilafro'z O'ROQOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 38-umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**



VAZIR YOSHLAR BILAN UCHRASHDI

Yurtboshimiz Siz aziz yoshlar bilan bog'liq ajoyib bir an'ana va tashabbusni boshlab berdilarki, bugun yurtimizdagi turli soha vazirlaridan tortib hokimlargacha barcha yosh avlod bilan ochiq muloqotga kirishmoqda. Jumladan, 29-yanvar kuni Toshkent davlat pedagogika universiteti majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov ishtirokida «Vazir va yoshlar» uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Ochiq muloqotda maktabda o'qituvchi bo'lib faoliyat yuritayotgan talabalar tizimidagi mavjud muammolar bo'yicha vazirga murojaat qilishdi. Vazir ularning savollariga javob berar ekan, tizimni yanada rivojlantirish uchun o'z hissalarini qo'shishga chaqirdi.

E'tiborlisi, vazir ishtirokidagi bu kabi uchrashuvlar har oyda o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ulardan biri fan olimpiadalari g'oliblari ishtirokida bo'lib o'tadi. Demak, tafsilotlarni kuzatishda davom eting!

JILVALANAR BESH RANG-TUS, QANOT YOZDI TASHABBUS!

Biz ko'pincha a'lochi va faol o'quvchining sifatlarini sanaganimizda, tashabbuskor so'zini ham qo'shamiz. Chunki shunday o'quvchigina tahsil olayotgan maktabda yangi tashabbuslarning amalga oshishiga hissa qo'shib, tengdoshlarini ham ortidan erashtira oladi.

mingdan ortiq maktablar orasidan g'oliblar aniqlandi.

O'tgan haftada Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Dilshod Kenjayev ishtirokida Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 38-umumta'lim maktabida festivalning Toshkent shahar, Sirdaryo va Toshkent viloyati g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



Unda ishtirok etgan mazkur ta'lim dargohining 6-«V» sinf o'quvchisi Aziz Mahmudova bizga quyidagilarni so'zlab berdi:

– Biz maktabimiz rahbari Gulnora Qo'chqorova boshchiligidagi tadbirga astoydil tayyorgarlik ko'rdik. Meni, ayniqsa, g'olib va sovrindorlarga berilgan raqamli fortepiano, musiqa asboblari, sport jihozlari, noutbuk, kompyuter, kitoblar to'plami, tikuv mashinasi kabi sovg'alar juda to'liqlantirib yubordi. Chunki bu jihozlar bizga sevimli mashg'ulotlarimiz bilan shug'ullanishimizga yanada keng imkoniyat yaratadi.

Demak, anglaganingizdek, tashabbuskorlar o'z o'quv dargohlarini kerakli jihozlar bilan ta'minlab, yangi shart-sharoitlarga ega bo'lishdi.

Xabaringiz bor, o'tgan yilning oktyabr, noyabr oylarida umumta'lim maktablarida 5 tashabbusni o'z ichiga qamrab olgan tarmoq tadbirlari bo'lib o'tdi. Tadbirdan lavhalar aks etgan fotosuratlar, tayyorlangan videoroliklarni feysbuk ijtimoiy tarmog'iga joylagan 17

tabimiz rahbari Gulnora Qo'chqorova boshchiligidagi tadbirga astoydil tayyorgarlik ko'rdik. Meni, ayniqsa, g'olib va sovrindorlarga berilgan raqamli fortepiano, musiqa asboblari, sport jihozlari, noutbuk, kompyuter, kitoblar to'plami, tikuv mashinasi kabi sovg'alar juda to'liqlantirib yubordi. Chunki bu jihozlar bizga sevimli mashg'ulotlarimiz bilan shug'ullanishimizga yanada keng imkoniyat yaratadi.

Demak, anglaganingizdek, tashabbuskorlar o'z o'quv dargohlarini kerakli jihozlar bilan ta'minlab, yangi shart-sharoitlarga ega bo'lishdi.

QIZLARXON

Yaqinda «Milliy tiklanish» gazetasida «London metrosidagi holat» nomli surat-lavhaga ko'zim tushdi: metroning yo'lovchilar bilan liq to'la vagoni. O'rindiqlar bandligidan tik turib ketayotgan yo'lovchilar ham ko'p. Bu odatiy holat, aslida. Lekin e'tiborni tortadigan jihati deyarli barcha yo'lovchilarning qo'lida gazeta, kitob...

AYBNI O'ZIMIZDAN QIDIRAYLIK



Dilbar XAITOVA, Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi 110-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Yoshi keksa yo'lovchilar bir necha sahifali gazetalarni varaqlab tonggi xabarlar bilan tanishib ketishyapti...

Shunda Toshkent metrosidagi holatni bir ko'z oldimiga keltirib ko'rdim: kuzatgan bo'lsangiz, yo'lovchilarning, ayniqsa, yoshlarning qo'lidan telefon tushmaydi: kimdir o'yin o'ynaydi, kimdir qulog'iga maxsus moslama taqib olib qo'shiq eshitadi... Mobil aloqa

ko'rishyapti. Bu ularda mutolaa madaniyatining bolalikdanoq shakllanganligi isboti emasmi?

Yoshlarimiz kitob o'qimay qo'yishdi, gazeta va jurnallar haqida esa gap ham bo'lishi mumkin emas, deya iddao qilamiz, ba'zan. Bunda faqat yoshlarimizni ayblasak, to'g'ri bo'ladimi? Menimcha, yo'q. Farzandlarimiz kitob o'qimayotgan bo'lsa, biz – ota-onalar, o'qituvchilar aybni avvalo, o'zimizdan qidirishimiz kerak. Xonadonida kitob javoni bo'lmagan, ota-onasining qo'lida kitob ko'rmay voyaga yetgan farzand, maktabda sinfdan tashqari soatlarda kitobxonlik qilmagan o'quvchida, kutubxonaga borishni or deb biladigan o'spirinda kitobxonlik madaniyati qanday shakllansin?! Yosh avlodni kitobxon bo'lib kamol topishi uchun, eng avvalo, ota-onalar, qolaversa, biz – boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham mas'ulmiz.

Zimmamdagi ana shu mas'uliyat zalvorini his qilgan holda o'zim rahbarlik qilayotgan 3-«D» sinf o'quvchilarini kitobxonlikka, gazetxonlikka jalb qilyapman. Ularning yoshiga, qiziqishlariga mos adabiyotlar tanlab, darsdan tashqari soatlarda o'qitaman, fikr-mulohazalari bilan

Lon-donliklarda ham dunyo yangiliklaridan shu «matoh» orqali xabardor bo'lish imkoni bor-ku. Lekin ular gazeta o'qishni afzal ko'rishyapti. Bu ularda mutolaa madaniyatining bolalikdanoq shakllanganligi isboti emasmi?



vositalaridan uzluksiz foydalanishning inson salomatligiga zararli ta'siri haqida gapirsangiz: «Hayotdan orqada qolibsiz, hozir bunday telefondan butun dunyo aholisi foydalanyapti. Internetga ulanib, dunyo yangiliklardan xabardor bo'lishning nimasi yomon?!» deya og'zingizga urishadi. Londonliklarda ham dunyo yangiliklaridan shu «matoh» orqali xabardor bo'lish imkoni bor-ku. Lekin ular gazeta o'qishni afzal


qiziqaman. O'quvchilarning ta'il kunlari kitob, gazeta va jurnallar mutolaasi uchun eng qulay fursatdir. Ta'tilda o'qishlari uchun badiiy adabiyotlar ro'yxatini tuzib beraman va albatta, o'qigan kitoblari mazmunini so'rayman. Shu asnodda o'quvchilarim qalbida bolalikdanoq mutolaaga mehr uyg'otishga harakat qilyapman. Ularning kelajakda Yurtboshimiz orzulagandek barkamol avlod bo'lib ulg'ayishlaridan umidvorman.

SINFDOSHLARIMNI HAYRATLANTIRGAN YANGILIK

**Haftaning juma kunlari tarbiyaviy soat darsini o'tamiz.
Dars avvalida ustozimiz Mavjuda opa Muhammadjonovanning
topshiriqlariga ko'ra, har bir o'quvchi yurtimizda va dunyoda sodir
bo'layotgan turli yangiliklarni aytib beradi.**

Yaqinda men ana shu topshiriqni bajarish uchun onam bilan yangi xabarlarni o'qiyotganimizda, ajoyib yangilik haqida bilib oldim.

Bilasizmi, Alisher Navoiy bobomizning «Farhod va Shirin» dostoni ilk bor ingliz tilida chop etilibdi. Asarni shoir va tarjimon A'zam Obid ingliz tiliga tarjima qilgan bo'lib, ushbu kitob hozircha 3 ming nusxada bosilibdi. Yana quvonarli voqealardan biri esa Abdulla Qodiriy



bobomizning «O'tkan kunlar» romanini amerikalik tarjimon Mark Edvard Riz ingliz tiliga o'g'irgan ekan. Eng qizig'i, «Bygone days» nomi bilan chop etilgan bu kitobning taqdimoti AQSHdagi O'zbekiston elchixonasida o'tkazilgan kuni poytaxtimizda Abdulla Qodiriy ijod maktabi, uy-muzeyi ochildi.

Bu xushxabarlarni darsda aytib berganimda, sinfdoshlarim qalbida bugun butun dunyoga mashhur buyuk bobolarimiz bilan faxrlanish tuyg'usi yanada ortdi.

**Asilxo'ja QODIROV,
Toshkent shahar, Yashnobod
tumanidagi 226-umumta'lim
maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi**



SHOGIRD YUTUG'I - USTOZ MUKOFOTI

Yosh avlodga bilim berish o'qituvchidan katta mahoratni talab qiladi. Maktabimizda ham bilimga chanqoq o'quvchilarga tajribali pedagoglar saboq berib kelishyapti. Ustozlar mehnatining samarasi esa turli tanlovlar, fan olimpiadalarida namoyon bo'lmoqda.

Kuni kecha tumanda o'tkazilgan fan olimpiadasida geografiya fanidan 9-«D» sinf o'quvchisi Zulayho Ismoilova 1-, tarix fanidan 10-«B» sinf o'quvchisi Shahzodbek Ibrohimov 2-o'rinni egallab, viloyat bosqichiga yo'llanma olishdi. Bu yutuqlar «Tarix va huquq» fan oyligida ustozlar uchun quvonchli voqea bo'ldi. G'olib o'quvchilar va ularning ustozlari qimmatbaho sovg'alar hamda pul mukofotlari bilan taqdirlanishdi.

**Nozimaxon TURSUNOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 42-umumta'lim
maktabining tarix fani o'qituvchisi**

DILKASH DAVRALAR

Gazetamizning qadrli, mutolaaga ishtiyoqmand o'quvchilari! Xabaringiz bor, maqtashga arzigulik yutuqlarga erishayotgan o'quvchilar bilan yaqindan tanishish, tengdoshlariga ibrat qilish maqsadida maktablarga ijodiy safarlar uyushtirishimiz an'anaga aylangan.

Navbatdagi safarimiz tahririyatimizga qo'ng'iroq qilgan poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 81-umumta'lim maktabiga uyush-tirildi. Bizga bolajonlarning sevimli shoiri

fikr. Buning uchun esa ko'p kitob o'qishingiz kerak...

– Men she'r yozmasam-da, she'r yod olishni yaxshi ko'raman, – dedi 5-«A» sinf o'quvchisi E'zoza Ilyosova. – Shoir Dilshod akaning she'rlarini zavq bilan tingladim. Ularning KITOBI so'zining har bir harfidan boshlanadigan misrali she'rlarini sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi bobo To'xtaboyev ham yaxshi ko'rarkanlar. Shoirimiz bu she'rni bizgaya o'qib berdilar. She'r yozish uchun har bir so'zning ma'nosini chuqur anglash, unga sayqal bera olish kerak ekan. Bu esa har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Shoirimizning bugungi fikrlarini

chilarimiz bilan uchrashganingizdan juda minnatdormiz, – dedi maktab rahbari Ziyoda Haydarova. – Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Elyor Yo'ldoshev o'quv yilining uchinchi choragini ham Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus doirasida tadbirlar tashkillashtirishdan boshlab yuborgani ayni muddao bo'ldi. Shoirilar bilan uchrashuv o'tkazish taklifi ham aynan o'quvchilarimizdan chiqqanini eshitib, yanada quvondim.

Aziz o'quvchilar, kuni kecha mamlakatimiz Prezidenti 2020-yilga «Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili», deya nom berilganini e'lon qildilar. Zero, ilm-u ma'rifat ma'naviy kamolot kaliti bo'lsa, har bir ijodkor hikmat bo'stonidir. Ularning dilkash suhbatlaridan birgalikda bahramand bo'lib, ma'rifat bog'ida sayr qilaveraylik.

Nodira NAZAROVA



Dilshod Rajab hamrohlik qildilar. Faollar zalining did bilan bezatilgan sahnasiga 5-, 6-, 7-sinflarning ijodkor o'quvchilari taklif qilindi. Dilshod aka Muslima Abdulazizova, Ziyoda Haydarova, Osiyo Ergasheva, Odina Olimova, Komila Rixsio'jayeva, Zaynab Meliqo'ziyeva, Robiya Abdusattorova, Diyora Mahammadaliyeva kabi she'riyat ixlosmandlarining she'rlarini diqqat bilan tinglab, har birini olqishlab turdilar. So'ngra, so'z shoirimizga berildi.

– Aziz o'quvchilar, maktabingizda she'riyat shaydolari, yosh qalamkashlar ko'pligidan xursand bo'ldik, – so'z boshladi Dilshod aka. – Sizga birinchi maslahatim – fikr-mulohazalaringizni aniq, lo'nda va ta'sirchan ifodalashni o'rganing. Har bir she'rda yangi, dono fikr aytilishi kerak. Hech kim kutmagan

tinglab, she'r yozish uchun iste'dod kerakligini angladim... E'zoza o'z so'zini O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Men nechun sevaman O'zbekistonni» she'rini yoddan o'qish bilan yakunladi. – Ijodkor o'quv-



Zuhra NISHONOVA olgan suratlár

THE PRIDE OF OUR NATION



Alisher Navoi was a great poet, Statesman and the founder of Uzbek literature. He was born in Herat, on February 9, 1441. Navoi became a very famous poet. He was active for many years in the society which was torn by endless wars after the death of Temur. He knew all poetic forms. Navoi wrote mostly in Turkic and used Persian very little.

Navoi was well known as a literary scholar. He supported poets, scientists and artists. He was a great master of fine arts and knew how to handle a painter's brush himself. He was a very good architect, and designed many schools, hospitals, inns, bridges, roads and channels.

Navoi wrote his greatest work «Hamsa», which consists of five poems – «Abrar ul-Khairat», «Farhad va Shirin», «Layli va Majnun», «Sabai Sayar» and «Saddi Iskandari» in 1483-1485. They were created on the basis of tradition hamsawriting - creating

Pyateritca (five poems). Navoi's «Hamsa» became the first work in this genre, created in Turkic language.

His last book, «Mahbub-ul-qulub», which was written in prose, is very popular with the Uzbek people to this day. Alisher Navoi died on January 3, 1501. His works have entered the treasury of world literature and have been translated into many languages.

Spring is like absolute hell for me without you...

Spring is like absolute hell for me without you,
The red bloom is fire in it, the white has icy view.

It's not strange – without you – spring is inferno,
Since paradise will – sans his face – turn to hades too.

As soon as his dream fantasies come into my sight,
Tears on my face line wrinkles with affliction, rue.

Delicious fruits are unsavory for a sick person,
It's unsurprising if your sweet lip will – vile curses – boo.

Soul in nonentity is longing for hand-holding,
Cause it feels this body for it is boorish, askew.

Do not say Navoi is ungarmented, he wears
A robe of nonexistence, a misfortune-sewn tissue.

Having turned a ten-day moon into a smaller arrow
The sky became a herald in front of the king's horse-blue.

The translation of A. ABIDOV

Rubaiy

For many years as a recluse I hid away,
Do dreams and visions come to one seeking life's pearl?
Not surprisingly Navoi left for the desert
Seeking solace from passion's impregnable pearl.

Bad luck taunts me. How I love your beauty!
Times over and over I have banished you
Forever, but then there was your beauty.

The translation of Dennis DALY

USTOZLARINGIZ BILAN O'QING

FAOLLAR ZALIDAGI



Kamina muxbir opangiz haftada kamida bir bora maktablarda o'tadigan turli tadbirlarda ishtirok etaman. Eh-he, shu kungacha men ko'rgan bayram-u ochiq darslarni sanaydigan bo'lsak, sanoqdan adashib ham ketamiz. O'zim qatnashgan tadbirlarni tahlil qilgan edim, bir mavzu haqida o'ylanib qoldim.

Nega ba'zi o'quvchilar maktablarida o'tkazilgan tadbirni tomosha qilish o'rniga sho'xlik qilib, bir-birlarini mazax qilib o'tiradilar? Ha, endi tadbir degani ham juda zerikarli narsa-da o'zi, deydiganlarga biz ham gap qotmoqchimiz: qani, bir maktab sahnasiga marhamat qilsinlar-chi! Yoki tadbirni qiziqarli o'tkazish uchun taklif berib, tashabbus ko'rsatsinlar-chi! Ha, aytishga

oson, ammo birgina sahna ko'rishini tayyorlash uchun qancha izlanish, mashq qilish kerakligini ular bilisharmikin?! Aytaylik, yaqin kunlarda barcha o'quv dargohlarida buyuk bobokalonlarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlangan tadbirlar boshlanadi. Tadbirda ishtirok etayotgan har bir o'quvchi odob saqlab o'tirsa, sahnadagi chiqishlarni tomosha qilib eslab

qolsa, ertaga bu ma'lumotlar unga asqotmaydi, deysizmi?! Ammo buni tushunmaydigan ba'zi bolalar faollar zalidagi o'rindiqni behudaga band qilib, o'tirgan o'rindiq'iga zarar yetkazib, yon-atrofdagilarni ham chalg'itib bema'ni hazillarga berilishadi. Ilmni faqat dars, darsliklar orqaligina emas, turli tadbirlar bilan o'quvchiga ulashishga harakat qilgan ustozlarning mehnatlarini qadrlamaydilar. Ha, endi bola degani sho'x bo'ladi-da, ja unchalikmasdir, deydiganlarga bir-ikkita dalillarim ham yo'q emas. O'sha men ko'rgan ayrim maktablardagi tadbirlarda ba'zan chunonam to's-to'polon bo'ladiki, o'qituvchilar menga xijolat bo'lib qarashadi. O'sha ustozini uyaltirgan o'quvchilarga aytar gaplarim, mana, yig'ilib qolgan ekan, bugun mavridi keldi. Bundan tashqari, o'sha ko'pchilik orasida o'zini tutishni bilmaydiganlar tadbirda ishtirok etayotgan maktabdoshi yoki sinfdoshini ham hurmat qilmasligini, unga do'st

emasligini namoyon qilayotganini bilarmikin?! O'zgalarni hurmat qilmagan inson, avvalo, o'zini hurmat qilmasligi haqida esa xo'p maqol-u rivoyatlar o'qigansiz.

O'quvchiligimda ta'lim maskanimizda o'tkazilgan Navro'z bayramida qatnashgandim. Bayram dasturxonini ham tuzadandim. Men sahnadagi chiqishimni yakunlab, sinfimiz o'quvchilari tomonidan bezatilgan stolga kelib o'tiray desam, bo'sh o'rin topilmadi. Nima qilarimni bilmay bo'sh o'rindiq qidira boshladim. Dugonalarim esa pinaklarini ham buzishmadi. Shunda juda xo'rimgim keldi.

Tadbir degani ham juda zerikarli narsa-da o'zi, deydiganlarga biz ham gap qotmoqchimiz: qani, bir maktab sahnasiga marhamat qilsinlar-chi! Yoki tadbirni qiziqarli o'tkazish uchun taklif berib, tashabbus ko'rsatsinlar-chi!

Sinfdoshlarimning menga bo'lgan hurmati shu ekan-da, deya o'ylandim. Ustozim meni davraga joylashtirdilar-da, ertasi kuni qizlarga tanbeh berdilar... Yillar o'tib, men ham Sizga tanbeh berayotgan bo'lsam, meni ustozdek qabul qilasiz, degan umiddaman.

Sayyora QODIROVA

DONO BOBOMIZ

Navoiydek bobom bor,
El bizga qilar havas.
Hikmatlaridir bisyor,
Saboq berar har nafas.

E'tiborli bo'l tilga,
Deydi dono bobomiz.
So'zni botirib bolga,
Biz ham dono bo'lamiz.



Charosxon KULNAZAROVA,
poytaxtimizning
Yunusobod tumanidagi
274-umumta'lim maktabining
4-«A» sinf o'quvchisi

NAVOIYNI O'QIYDI
DUNYO

Mutafakkir ulug' daho,
O'tmishdan berguvchi sado,
Asarlaridir bebaho,
Navoiyni o'qiydi dunyo.

Yurak nazm bo'stonida,
Nigoh so'zning ummonida,
Quyosh elning osmonida,
Navoiyni o'qiydi dunyo.

Tengsiz uning jasorati,
Farhod-u Shirin qismati,
Allohga ishq-muhabbati,
Navoiyni o'qiydi dunyo.



Muhtaram HASANOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
68-umumta'lim maktabining
10-sinf o'quvchisi

SHE'RIYATNING SULTONI

Daholarning dahosi,
Biz yoshlarning bobosi.
Porlab mangu navosi,
Ilmga jon fidoyi,
Buyuk inson Navoiy.

She'riyatning sultoni,
Qalbi ijod makoni.
Fors-u turkiy zaboni,
Ilmga jon fidoyi,
Buyuk inson Navoiy.

Hurmat, izzat, ehtirom,
Navoiyga assalom.
Muborak bo'lsin deymiz,
Bugungi ulug' ayyom.



Asal RAVSHANXONOVA,
Toshkent shahri, Chilonzor tumanidagi
114-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf
o'quvchisi

MUHABBATGA UNDAGAN OHANG

Yurakning rang-barang tuyg'ulari yer-u os-monga sig'may qolsa, she'r yozging keladi. Qismatning manglayingga bitgan shirin bitigidan yuraging osmonida nimadir momaqaldi-roqdek guldirasa, bilginki, ko'ngil kengliklarida darddan bayt unib chiqayotgan bo'ladi. U, albatta, bir kun qog'ozga yog'ilib, o'z hosilini beradi.

Taniqli bolalar shoiri Xurram Rayimovning so'z haqida yozilgan she'rida so'zning qudrati quyidagicha ifoda etiladi:

**Yaxshi so'zdan yuzlar xandon,
Yaxshi so'zda halovat mo'l.
Yomon so'zdan qular osmon,
Yomon so'zdan yog'ilgay do'l...**

Birgina so'z hayotini ostin-ustun aylashi yoki seni cheksiz baxt-u saodatga eltishi mumkin. Ijodkorning o'ziga xos yo'li, usuli, hech bo'lmasa birgina yaxshi satri bo'lsa, o'quvchi uni ko'ngliga hamroh etadi.

**Dil otashin suv sepmayin o'chirishni,
Alamlarni yuraklardan ko'chirishni,
Daraxtlardan o'rganaylik kechirishni,
Nolalardan, ozorlardan oh chekmasdan...**

Ushbu she'r orqali kitobxonni daraxtlardek mag'rur yashashga undayotgan shoirning topqirligini his etamiz, ko'z oldimizda yurting tuprog'ini o'z ildizlari bilan siqimlab olgan, g'ururi osmon daraxtlar jonlanadi. Ular qulagan paytida ham ildizlarida Vatan tuprog'ini siqimlab qulayotganini kuzatganmiz.

O'z tuprog'ini daraxtlar kabi sevishga undayotgan Xurram Rayimov borliqning ranglarini mohir

rassom kabi qalbdan his qilib chizgani uchun ham uning bitganlari samimiyydir.

**Ko'chalar jim, sayramas qushlar,
Tin oladi daraxt shoxida.
Erta turib tongni olqishlar,
Ma'no ko'pdir ular ohida...**

Tong otmoqda. Uni qarshilayotgan, olqishlayotgan qushlarning zavqidan yangi kunga ishonchimiz ortadi...

Bugun 70 yoshni qarshilagan Xurram Rayimov bolalar adabiyotida o'z yo'li, o'z ovozi bilan to'lib-toshib kelayotganiga guvohmiz. Shoirning o'quvchi kitob javonidan munosib o'rin egallagan «Mohitobonim», «Qo'shqanot», «Mehrigiyoh», «Bola bilan kapalak», «Men kichik kashfiyotchi», «Sabr daraxti», kabi o'nlab she'riy to'plamlari muhabbatga undovchi ohanglari bilan qal-bimizga orom baxsh etadi. Quvnoq she'rlari umumta'lim maktablarining o'quv darsliklariga kiritilgan tinib-tinchimas shoir bobongizning ijodiga baraka tilaymiz.

AXTAMQULI,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

BIR-
BIRIMIZDAN
O'ZIB
KETAYLIK!

Yaqinda maktabimiz kutubxonachisi Mohira opa Azizova «Yosh kitobxon» tanlovini o'tkazdilar. Bellashuv shartlaridan biri buyuklarning kitob haqidagi hikmatli so'zlaridan bir nechtasini aytib berishdan iborat edi.

Ustozim Gulmira opa Usmonova ko'magida tanlovga tayyorlanish davomida ana shunday o'nlab hikmatlarni yod oldim. Menga, ayniqsa, Alisher Navoiy bobomizning «Kitob – beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasini bilan oshno eta oladi», degan o'g'itlari juda yoqdi. Chindan ham turli asarlarni o'qir ekanmiz, biz hayotni o'rganamiz, o'zimizni tarbiyalab, bilimimizni oshirib boramiz. Yoshlikda o'qigan kitoblardan olgan bilimlarimiz toshga o'yilgan naqshdek hayot yo'llarimizda, albatta, asqotadi. Shunday ekan, aziz do'stlarim, mutolaadan charchamaylik, bu borada bir-birimizdan o'zib ketaylik!

Shahrizoda HAMROYEVA,
Jizzax viloyati, Mirzacho'l
tumanidagi 16-umumta'lim
maktabining 5-sinf o'quvchisi



«SHAXMAT - SHOHLAR O'YINI» NOMLI KITOB YOZDIM

Men 5 yoshimdan shaxmat

o'ynashni boshlaganman. Mening shaxmatdagi birinchi ustozim - Abdusamad hoji bobojonim. U kishi biz - nabiralarning hammasiga shaxmat o'ynashni o'rgatganlar. Faqat men va singlim Sumbula shaxmat o'yni bilan muntazam shug'ullana boshladik.

Jahon chempioni Garri Kasparov bilan raqib sifatida tosh surgan ustozim Xayrulla To'rayevdan shaxmat o'ynining murakkab usullarini, o'yinni muvaffaqiyatli yakunlash va g'alabaga erishish sirlarini o'rgandim.

12 yoshimdan ustoz Zafar Primovdan shaxmat o'ynida sabr-toqatli bo'lish, vaqtga qat'iy amal qilish, o'yindagi har xil vaziyatni izchil tahlil qilishga oid saboq oldim.

O'zbekiston Shaxmat Federatsiyasi shaxmat maktabida o'rganganlarim shaxmat o'yni borasidagi tajribamni yanada mukammallashtirdi. O'yinning so'nggi bosqichi haqida chuqurroq o'ylashimga, yangi usullardan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirishga yordam berdi. Natijada, O'zbekiston Shaxmat Federatsiyasi Toshkent shahar bo'limining kvalifikatsiya turnirlarining 2,1 razryad normalari o'yinlarida qatnashib, I darajali diplom bilan taqdirlandim.

Shuningdek, ta'limning informatsion texnologiyalaridan foydalanib, bir necha yillar mobaynida Rossiya davlatining «Metashkola»



internet tanlovlari va olimpiadalarida rus, ingliz, xitoy tillari, musiqa, ekologiya, fizika, matematika, kimyo fanlaridan qatnashib, 20 ga yaqin I, II, III darajali diplom va sertifikatlarni qo'lga kiritdim. Bu esa o'quvchilarga uyda o'tirib ham dunyodagi tengdoshlari bilan ilmiy va aqliy bahslashish imkonini beruvchi qulaylikdir. Barcha tengdoshlarimga ham bundan foydalanishni tavsiya etaman.

Men shaxmat bo'yicha olgan bilimlarim va tajribalarim asosida «Shaxmat - shohlar o'yni» nomli kitob yozdim. Albatta, bu kitobni yozish juda qiyin bo'ldi. Rus tilidagi qo'llanmalarni mukammal o'zlashtirib, chuqur o'rganib, kitobning qiziqarli chiqishi uchun shaxmatning paydo bo'lishi haqidagi ertaklardan ham foydalanishga to'g'ri keldi. O'quvchilar shaxmat ilmi ancha qiyinligini his etishlari uchun kitobga murakkabroq ma'lumotlarni ham kiritdim. Kitobning 38-darsi o'quvchilar bilimlarini sinash uchun berilgan masalalarni o'z ichiga oladi.

O'ylaymanki, bu kitob shaxmat ixlosmandlari, maktab o'quvchilariga shaxmatni o'rganishda yordam beradi.

Tengdoshlarim! Mehnat qilishdan, izlanishdan to'xtamang. Zero, bu ikki amalning natijasi rohatdir.

Yulduzxon ABDUSAMADOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
2-umumta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi

Qish pallasida insonlar organizmi tez-tez shamollashga moyil bo'lib qoladi. Bu tabiiy holdek tuyuladi. Ammo otabobolarimiz: «Qishda boshingni, oyog'ingni issiq tut», deb bejizga aytishmagan.

VIRUSLARDAN EHTIYOT BO'LING!

Axir shamollab qolsangiz, boz ustiga, to'liq davolanmasangiz, uning oqibatida organizmda turli asoratlar qolishi mumkin. Endi esa ayni damda, butun dunyoni larzaga solayotgan «Koronavirus», boshqacha qilib aytganda, «Xitoy pnevmoniyasi» haqida to'xtalsak...

Xitoyning Uxan shahri ushbu virusning ilk tarqalgan joyi hisoblanib, ayni kunlarda ushbu shaharcha butunlay yopilgan. Ushbu virus insonga havo-tomchi orqali yuqishi, kasallikning yashirin davri 10-14 kungacha kechishi aniqlangan. Kasallikning ilk belgilari tana haroratining ko'tarilishi, hushdan ketish alomatlari bilan boshlanishi tasdiqlangan.

Mamlakatimizda Koronavirus infeksiyasi bo'yicha epidemik vaziyatning barqarorligi kuzatilmoqda. Xitoy davlatidan bu infeksiyaning yurtimizga kirib kelish holatlari qayd etilmagan. Mamlakatga kirib kelayotgan har bir shaxs avval chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazilmoqda.

Xo'sh, inson umuman shamollamasligi, o'tkir respirator kasalliklarga uchramasligi uchun nimalarga e'tibor berishi kerak? Shu o'rinda siz aziz o'quvchilarga bir nechta maslahatlarni bermoqchimiz:

Birinchi navbatda, shaxsiy gigiyenaga amal qiling: qo'llaringizni toza tuting. Ko'chadan kelgach, yuz-qo'llaringizni sovunlab yuving. Ovqatlanish qoidalariga qat'iy amal qiling. Ommaviy ovqatlanish joylarida iloji bo'lsa, bir martalik idishlardan foydalaning.


Internet manbalari asosida
Ozoda TURSUNBOYEVA tayyorladi



BIR OLAM TAASSUROT

Umumta'lim maktablarida tarix, huquq fanlari oyli doirasida ko'plab tadbirlar, sayohatlar o'tkazildi. Jumladan, maktabimiz o'quvchilari ham Buxoro shahridagi VII asrga tegishli bo'lgan Varaxsha qadimiy shahar yodgorligiga sayohat uyushtirdilar.

Ushbu sayohat davomida o'quvchilar Varaxsha shahri, uning tarixi, arxeologik jihatlarini to'g'risida tarix fani o'qituvchilari yordamida ko'plab ma'lumotga ega bo'lishdi. Ularga bu yerda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasi yuzasidan batafsil ma'lumot berildi. O'quvchilar sayohat davomida qasr devorlari qoldiqlarini, ulkan karvon yo'li ostida tashkil topgan quduqlar va sopol toshlarning qoldiqlarini ko'rishga muyassar bo'ldilar. Qaytishda yosh sayohatchilar Romitan hududida joylashgan Xo'ja Azizxon Romitan



taniy ziyoratgohiga kirib, me'moriy obidalar, ziyoratgohda olib borilayotgan qayta ta'mirlash ishlari bilan tanishishdi.

Bir kunlik sayohatdan bir olam taassurotlar olgan o'quvchilar yurtimiz, xususan, ko'hna va navqiron Buxoro shahri tarixiga oid bilimlarini yanada boyitishdi.

Nargiza OSTONOVA,
Buxoro viloyati, Romitan
tumanidagi 23-davlat
ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi tarix fani
o'qituvchisi

Zukko

o'quvchilar! Buyuk mutafakkir bobimiz Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga doir quyidagi testlarning javoblarini topib, o'n kun muddat ichida tahririyatimizga qo'ng'iroq qilgan dastlabki to'g'ri javob egasi sovg'alar bilan taqdirlanadi. Shu muddat ichida quyidagi krossvordning javoblarini ham elektron manzilmizga yuborishingiz mumkin.

Shoshiling, sovg'alar sizni kutmoqda!

ILM IZZATI



3. Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan maktubida qaysi asarni 2-3 yilda yoza olaman, deydi?

- A) Xamsa;
B) «Muhokamat ul-lug'atayn»;
D) Risolayi tir andoxtan.

5. So'zda Navoiy ne desang, chin degil...
baytning davomini ayting...

1. «Ko'ngul maxzani-ning qulfi til,
Ul maxzanning kalit-in so'z bil».

Alisher Navoiyning ushbu baytidagi maxzan so'zining ma'nosi...

- A) boyluk;
B) xazina;
D) dengiz.

2. Kim Navoiyni «Navoiy suxandon», «Manzuri shahan-shohi Xuroson», deb ataydi?

- A) Abdurahmon Jomiy;
B) Husayn Boyqaro;
D) Fuzuliy.

4. Navoiy kimni «Nuran ul-millat», deb e'zozlagan?

- A) Xisrav Dehlaviy;
B) Pahlavon Muhammad;
D) Abdurahmon Jomiy.

N. NAZAROVA
tayyorladi

«DONISHMAND SHOIR» TOPQIRLIK MASHQLARI

1	2	3	4	5	6	7	8	9										
10	**** Alisher Navoiy hikmati ****							11										
12	**	5	9	14	12	4	11	**	13	2	7	17	2	14	4	**	18	2
14	3	11	**	13	2	7	17	2	14	14	4	14	12	**	5	2	-	-
16	**	**	**	11	4	16	4	14	**	8	9	17	**	6	4	11	**	**
17	18	19	20	21	22	23	24											

Belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida:

1. Maktub tarzida yozilgan asar.
2. Ulug' ijod sohibi tavallud topgan shahar.
3. Navoiyga zamondosh qasidanavis shoir.
4. Alisher Navoiy dunyodagi eng aziz do'st deb ta'rif bergan manba.
5. Qofiya, ritm va mazmun jihatdan o'zaro bog'langan she'riy parcha.
6. Shoir Samarqand shahrida bilim olgan davrida sayr

- qilgan joylar viloyatga aylantirilib berilgan nom.
7. Alisher Navoiyni ustoz deb bilgan, unga maktublar yozgan shoh va shoir.
8. To'rt misradan iborat she'riy janr.
9. Nazmiy asarlar ijodkori.
10. Navoiyning besh mustaqil dostonidan iborat shoh asari.
11. Musiqqa san'ati janri.
12. Misra yoki bayt oxirida qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so'zlar.
13. So'z ko'rki.
14. Ijodiy zavq jo'sh

- urgan holat.
15. Nasriy asar janri.
16. Shoir hikmatidan: «Oz-oz o'rganib ... bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur».
17. Sharq mumtoz adabiyotiga xos she'riy janr.
18. «Layli va Majnun» dostonidagi bahodir va oliyjanob kishi.
19. Shoir ulug'lagan aziz diyor.
20. She'riy to'plam.
21. Hikmatdan: «Ko'p ... ko'p yengilur, ko'p yegan ko'p yiqilur».
22. Ulug' shoir taxalluslaridan biri.
23. Faxr,

- iftixor.
24. Bir baytdan iborat mustaqil she'r.

TOPSHIRIQ. Shakldagi javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar orqali shaklning o'rta qismida raqamlarda ifodalangan topshiriqni hal eting. Bunda ularni qatorlar bo'yicha o'qish bilan donishmand shoirning hikmatli so'zlaridan birini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SADULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzilmiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@gmail.com
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 5177
Buyurtma - V 4047

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08